XALQ DEPUTATLARI UYCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 10 - mart VI-62-20-6-86-K/23 Uychi tuman hokimligi

Uychi tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag’larini yo’naltirish to’g’risida.

O’zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida"gi qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida" 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son farmoni, "Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida" 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son qarori, "2022 — 2026 yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida" 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori, Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida" 2021-yil 11-martdagi 132-son qarori, "Davlat va jamiyat ehtiyojlarni uchun yer uchastkalarining olib qo’yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo’yicha markazlashtirilgan jamg’armalar mablag’larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to’g’risida nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 26-dekabrdagi 1047-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag’lari hisobidan mablag’larni yo’naltirish to’g’risidagi takliflarni ko’rib chiqib, "Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida"gi O’zbekiston Respublikasi qonunining 6, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan harajatlarning asosiy qismi tuman mahalliy

byudjeti mablag’lari hisobidan amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Uychi tuman moliya bo’limining 2023-yil 9 fevraldagi 01-14-229/14-01-36/65-sonli xati inobatga olinsin.

3. Uychi tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag’lari 660 750,0 (olti yuz oltmish million yetti yuz ellik) ming so’mni tashkil etganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida" 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son qaroriga asosan "Ayollar daftari" jamg’armasiga 15 foiz, ya’ni 99 000,0 (to’qson to’qqiz million) ming so’m, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida" 2021-yil 11-martdagi 132-son qaroriga asosan "Yoshlar daftari" jamg’armasiga 15 foiz, ya’ni 99 000,0 (to’qson to’qqiz million) ming so’m, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026 yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida" 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida "Obod qishloq" va "Obod mahalla" jamg’armasiga 160 000,0 (bir yuz oltmish million) ming so’m, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat va jamiyat ehtiyojlarni uchun yer uchastkalarining olib qo’yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo’yicha markazlashtirilgan jamg’armalar mablag’larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to’g’risida nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 26-dekabrdagi 1047-son qaroriga muvofq viloyat hokimligi huzuridagi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo’yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo’yicha hududiy jamg’armasiga 100 000,0 (bir yuz million) ming so’m, jami 458 000,0 (to’rt yuz ellik sakkiz million) ming so’m tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag’lari hisobidan ajratilsin.

5. Ushbu harajatlarni amalga oshirishga mas’ul bo’lgan tashkilotlar rahbarlari:

- ajratilgan mablag’lar doirasida belgilangan tartibda to’lovlarni amalga oshirish;

- moliyalashtirish manbasini ochish uchun o’rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman moliya bo’limi va tuman g’aznachilik bo’linmasiga taqdim etish;

- ajratilgan mablag’lardan to’g’ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash;

- ajratilgan maqsadli mablag’larni o’z vaqtida va samarali ishlatilishini moliyaviy

hisobotlar asosida tizimli o’rganish hamda ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag’larni tuman mahalliy byudjetiga qaytarish choralarini ko’rsin.

6. Tuman moliya bo’limi (Xolmirzaev)ga tuman mahalliy byudjeti harajatlariga belgilangan tartibda tegishli o’zgartirishlar kiritish, tuman g’aznachilik bo’linmasi (Orziboev)ga to’lovlarni o’rnatilgan tartibda va o’z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorati qilish tuman hokimining birinchi o’rinbosari (Nurmatov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi (Xojimirzayeva) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Sh.Musayev**